

RAHMAT BOBOJON

IZTIROB SHIVIRI



KITOBIM

BIRINCHI

O'z 2
B 79

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

RAHMAT BOBOJON

IZTIROB SHIVIRI

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020



Nashr uchun mas'ul:

G'ayrat MAJID,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
o'rinbosari*

Mas'ul muharrirlar:

Ne'mat Arslonov, Nargiza Asadova


Baxt haqida so'zlash, uning borligiga o'zni-da, o'zgan da ishontirish oson yumush emas. Zero, Baxtga elta yo'llarning zahmati bor.

Yosh shoir Rahmat Bobojon bu yo'lning zalvorini yural dan his etadi va: "Bog'larga gapirib faqat baxt haqda, an o'riklarning sochi oqargan" deya yozadi. Yosh ijodkor um ni, qismatini she'r bilan, uning iztiroblari, g'ussa va nekbi tuyg'ulari bilan bog'lagan, ayni kez shu bilan yashayotga shoir.

Biz Rahmat Bobojonga bu yo'lda yorug' tuyg'ular tilal mazkur kitobcha orqali uning o'quvchilariga ham bu nu dan ilinamiz.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining
Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat
fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6473-6-7



© R. Bobojon, 202

© "Adabiyot", 202

IZTIROB DARAXTI

(Tosh shahar... manzaralari)

Men shunday deyman: she'riyat – Yer kurrasining kelinlik sepi. Agar sayyoralarga koinot maydonida o'z bisotini yoyib namoyish etish imkoni berilsa, bizning ona Yerimiz, hech shubhasiz, g'oliblik tojini kiygan bo'lardi. Zero, uning bisoti jamg'arilgan sandiqda ko'pgina ulug'larining tuhfası bor. Homer, Shekspir, Gyote, Hofiz, Navoiy deb nomma-nom sanab o'tirmayman. Faqat aytamanki, shu maydonning bir chetida ko'zga hali unchalik tashlanmaydigan bir mintaqasida – yosh shoir Rahmat Bobojonning ulushi ham bor.

Yigirmanchi asrning nomdor faylasufi Baxtinning Eynshteyndan qarzga olgan va matematika maydonidan shundaygina ko'chirib adabiyot zaminiga o'tqizgan “xronotop” nazariyasi boshqa barcha adabiy janrlarda bo'lganidek, she'riyatda ham amal qiladi. Ya'ni hamma narsa zamon va makonda mavjud. Rahmat Bobojonning “Iztirob shiviri” qo'ngan maydon – Toshkent. Vaqt – yigirma birinchi asr. Modomiki, xronotop nazariyasiga urg'u bergan ekanmiz, avvalo, e'tiborni to'plamdan o'rin olgan makon bilan bog'liq taassurotlarga qaratamiz.

*Kuz sochar xazonlar – nadomatlarin,
 Bir hazin qo'shiqqa raqs tushar har barg.
 O'sha ishq, o'sha dard, o'sha qarashlar
 Xotiram uyini aylamoqda tark.*

- Naqadar latif ohang! Dilrabo kuyday sokin quyiladi. Yaqqol ko'rinadi bu holat. Umuman, Rahmat Bobojonning she'rlarida "holat" boshqa barcha uslublar va she'riy vositalar uchun zamin. Ruhiy tug'yonlar ana shu zaminda harakatlanadi. Vaqt bilan zamon bir butun bo'lib qo'shilib ketadi. Xazon sochib turibdi kuz, hazin qo'shiq, raqs tushayotgan yaproqlar holati. Hazin qo'shiqqa sho'x raqs tushib bo'lmaydi. Ona bag'ridan uzilib ketayotgan, ammo hali yerga
- 4 yetib kelmagan yaproqlar raqsida mung bor... xuddi shu yaproqlarday "ishq", "dard", "nigoh" ("qarashlar") xotira uyini tark etmoqda. Bular xotira uyida, ya'ni inson shuurida mavjud bo'lgan makon sarhadlarida ro'y berayotgan jarayon. Agar shodlik daraxtining navdalari osmonga yetib borsa ham, yer ostida, zulmat bag'rida, yorug'lik ko'rmay yashayotgan jafokash tomirlarda iztirob bor. Butun og'irlikni ko'tarib turgan tomirlardan suv ichadi daraxt. Adabiyotshunosligimizda ko'p qo'llaniladigan va urf bo'lib qolgan "topilma", "o'xshatish" degan ta'riflar ortiqcha bu yerda. Bunda holat ustun. Hamma narsa yaqqol ko'rinib turgan holatda

“Men faqat yuzingni eslay olmadim” deydi shoir. Chunki Uning muhtar nigohiga qarashga jur’ati yetmagan, ayriliq holati yog’ilib turibdi undan. Bunday holatni kuzatish chindan-da og’ir. “Yurakda sarg’aygan xat” o’sha xilqatning o’zi. Juda og’ir xayrlashuv onlari, alvido aytiyapti, ketishga chog’langan xilqatning nigohidan ayriliq yog’iladi. Qarangki, shunday lahzada uning ketishini talab qilish, qaytib kelmasligiga da’vat she’r qahramonining shafqatsizligi bo’lib tuyuladi:

Har kimning umrida

borki shunday kun:

nurlarga tutashdir, tonglarga habib.

Ranglari olmishdir kamalakdan rang –

yo’lma-yo’l, izma-iz borsang axtarib,

topajaksan

go’zal, muqaddas ohang...

O’ylaymanki, payti kelib, yosh shoir Rahmat Bobojonning shivirlab aytayotgan she’rlari yurtimiz hududlaridan oshib o’tib, uzoq-uzoq mamlakatlarning sarhadlaridan bizga baralla eshitilib turadi.

Ne’mat ARSLON,

*O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
yozuvchi.*

SINGLIMGA MAKTUB

Tumanday tarqasa ruhimdan hasrat,
qop-qora ko'zlaring – alamsiz go'sha.
Bir lahzasi – shodlik,
birisi – g'aflat,
mening ham bir kuni ketarim o'sha...

Bo'g'zimga to'lgandi kellarimda oh,
kundan-kun parchalar yuragimni zang.
Bir nigohim – qayg'u,
birisi – gunoh,
ko'ksimdan itargin, kelgin, istasang.

Faqat qol.
Tosh shahar ko'chalarida
iztiroblar izlab yig'laganim sen.
Umrning uzlatli kechalarida
she'rdek so'zma-so'zlab tiklaganim sen.

Moviy ko'zyosh kabi ketma sochilib,
qo'rqaman,
yetmaydi jur'at, na qo'lim.
Biroq meni tushun, gapning ochig'i,
yo'lim – aqli yo'q bir tentakning yo'li.

Toshkent – tentaklarga eng qulay shahar,
yuziga tortmagan uyatdan parda.
Har bir bekatida mushtoqlik yashar,
sog'inchlar yashaydi ijaralarda...

Bunda yurak bilan o'lmoq muqaddas,
muhabbat shundayin buyuk narsaki...
Bir ravishi – alam,
birisi – havas,
nasibang bor, yo'g'i achchiq tarsaki.

Unutsin, deb hamma azobin ko'zlar,
kulgular o'rnini bermay nolaga,
Akanгни har kuni mehribon do'stlar
sudrab ketar "Milliy qovoqxona"ga...

So'ng bir-bir qulaydi shishalar, tamom,
tutunli suhbatlar zavqi davomiy.
"May ichsang..." o'rtaga tushadi Xayyom,
"Kelmadi..." davrani bezar Navoiy...

Yarimlab qolgandir shaharda tun ham,
Endi uyga.
Bilmam, qay uy, qay daha.
Oshnalar hayratda iljayar birdan,
osmonga yetguday otsam qahqaha...

Bilasan, oldingda aybim ko'p, axir,
aytolmayman, bitta gunohimdan kech:
Ista, aka dema, ablah, deb chaqir,
ko'nglim, deb ko'nglingni so'rolmadim
hech...

Tushlarimdan asrab qolganim bir o'y –
hamma kelar-ketar tashlab dard, g'amni.
Agar ketar bo'lsam, yig'lamagin, qo'y,
hech qachon kechirma ablah akanгни...

* * *

Xudoyim, yerlarga urmas nomini,
Hattoki jonidan ortiqroq suyar.
Zo'rg'a topib yeydi burda nonini,
Ichikib ulg'ayar, yig'lab ulg'ayar –
Tosh shahar...

Hech ham gapga kirmas boladay bebosh,
Ko'zlari mungligim, ey qoramag'iz.
Xaroba qalbingga otmadikmi tosh,
Seni xafa qilib qo'ymadikmi biz?!
Tosh shahar...

Cho'ntagi teshilmay yashayotgan dard,
Ko'chalarda yolg'iz sang'igan dalli.
Endi sen ham yo'qlik azobini tort,
Nigohingga tushgay shu on tajalli...
Tosh shahar...

Dakkilar, ta'nalar tinglab tolmayсан
Va yana kamiga yozadirsan she'r.
O'zgalarga axir, darding ko'paysa,
G'arib nigohingdan g'amlar uzib ber!
Tosh shahar...

Yashamoq – oylikni olmoq degan baxt,
Yashamoq – xurjunin to'ldirgan yemak.
Oppog'-u qoralar mehmoning har vaqt,

Yuraging ijara uy kabi demak.


Tosh shahar...

Poklikni qilmaysan hech qachon da'vo,
Jimjitlik ichida ungan nolasan.

Telbalarni shoir qilgan bola yo

Shoirnlarni telba qilgan bolasan...

Tosh shahar...



* * *

Onajon,
bilasan, unutganim yo'q,
Sog'inchlarim mo'ldir,
vaqt esa tig'iz.
Bebaxt kechalarda ayrildik majruh,
Baxtiyor kunlarda uchrashmadik biz.

Ehtimol,
qishloqda har narsaga shay,
oftob so'niq chiqar, yel daydi yelar.
Men esa bag'ringda sodda boladay
Bir paytlargidayin uyg'ongim kelar...

10

Xavotir olaman,
omonmisan deb,
Yo qoshingdan ketib kutilmaganda,
Men she'rdan boshqani bilmaganimdek,
Qizlardan boshqani bilmasmi ukam?
Aytganingdek menda bordir tashvish,
dard,
Sen faqat yodimda, shu azob kammi?
Hali ham sog'inib yashaysanmi, ayt,
Olislarda qolib ketgan otamni?

Dunyomi topganim
yo bir tutam xas,
azobmi topganing, cho'kaverib tiz.

Sen hayot, men shahar shovqinida mast,
Mehribon unlarda uchrashmadik biz...

Soatlar imillab aylanadi gir,
Yillar – oramizda maydalangan qum.
Bol deb barmog'imni shimsam, baribir,
Yuragim topgani zahar va zaqqum.
Bolang esingdami,
o, go'l, o, g'arib,
Uchragan kimsaga ko'nglini yorar.
Sochlarim sochingdek borar oqarib,
Ko'zlarim ko'zingdek kirtayib borar.

Shu og'ir qismatni majbur tanlayman,
"Endi, qayt!" deyishga qoldirmaydi so'z.
Faromush tonglarda yig'lab anlayman,
"Xayrli tun"larda uchrashmadik biz...

Men yo'qman,
yo'g'imda meni sog'inib,
inja ayriliqdan yaraladi so'z.
Eshikka boshini urib, og'rinib,
sening ostonangda qolib ketar Kuz.
Bahorni qidirib yo'lga tushmas bog',
Qushlarga yelkasin tutmaydi daraxt
Va hamma-hammaga ochadi quchoq
va hamma-hammaga keltiradi baxt.

Xatolar so'zlarni borar o'chirib,
og'riqlar – she'r bilan olingan xunlar.
Eslamasang hamki seni kechirib,
yillar kechaverar,
kechadi kunlar...

Men yo'qman,
yo'g'imda bor bo'lsang agar,
o'zgarmas bir zumga hech hikmat, duo.
Har doimgi kabi imillar shahar,
har doimgi kabi g'ildirar dunyo.


Jon taslim etarmi yolg'iz qolgan ruh?
ko'zlaring ichikar,
dil motamsaro,
Bitta istagim shu, men bormi yo yo'q,
seni ranjitmasin hech qachon Xudo...

Men yo'qman...

SO'NGGI ILTIMOS

Muztar nigohingdan ayriliq yog'ar,
Alvido – ko'nglimda sarg'aygan xatim.
O'sha bog', o'sha tun, o'sha o'rindiqlar,
Men faqat yuzingni eslay olmadim...
Kuz sochar xazonlar – nadomatlarin,
Bir hazin qo'shiqqa raqs tushar har barg.
O'sha ishq, o'sha dard, o'sha qarashlar
Xotiram uyini aylamoqda tark.

Sen sevma, sog'inchlar lahzalik baxtdir,
Sen ketgin, yech dildan g'am libosini.
Sen qaytma, iltimos, so'nggi iltimos –
Bajarma eng so'nggi iltimosimni...



BIZNING KUN

1

Har kimning umrida
borki shunday kun:
nurlarga tutashdir, tonglarga habib.
Ranglari olmishdir kamalakdan rang,
yo'lma-yo'l, izma-iz borsang axtarib,
topajaksan,
go'zal, muqaddas ohang...

Bu qismatning baxt deb atalmish kuyi,
shodlik nomli sirli navolaridir.
Bizning yo'riq esa
uchmoqdan nari,
"borsa-kelmas" degan ma'volaridir.

Moychechaklar xotir farzandlarimi
yoki muhabbatdan yuksalgan g'oziy?
Men aniq bilaman, ne bo'lganda ham,
Sen unda Malaksan,
men bunda osiy...

Har kimning umrida
borki shunday kun:
Jim anglab turibman bizda shudirmi

Kuyimiz kuylarning eng go'zali, eng!
Birgina kun sabab butun umrni
yashab o'tajakmiz toki
sen va men...

2

Bizdan kechib borar umr – haqiqat,
ista-istamaylik yolg'onlar qaytar.
Har yilning,
har oy-u
bitta kunida
yelkam bor aybiga istig'for aytar...

Men iztirob bilan bahsga kirgan kas,
men mehr tutganga dil tutguvchiman.
Sen-la xatolardan yuz burar butkul,
sen-la gunohlarni unutguvchiman.

Bir kunda anglayman go'zal hikmatni:
nigohlari tashna ko'nglimga panoh.
Ishonging kelmaydi,
dunyoda shunday
mukammal baxt bor der, Astag'firulloh...

Kaftlardagi qutlug' duolar sabab,
kechang bor, tonging bor, shoming bor sening.
Besh mahal bosh egib, tiklangan damda
yuragimda qalqqan noming bor sening...

Xatolaring tushun, aybing oqlama,
faqat sev, shodlikka aylagin nishon.
Sen ko'nglimni siyla, shunda umrbod
Xudo rahmati-la siylaydi,
ishon!

3

Qismat matlabimda nihon g'amlarning,
azobning ham bir kun ajrlari bor.
Chunki
ko'zlarimda ko'zlaring kutgan
so'ngsiz sog'inchlarning hajrlari bor...

Ruhim kengligida baxt kulbalarin
obodlari bordir, barbodlari bor.
Chunki
yelkam uzra boshing istagan,
og'riqlarning go'zal faryodlari bor.

Tilaklarim bordir qalbmida mening,
istakning yorilgan ko'zalari bor.
Chunki
lablarimda labingga tashna
Haqning bizga bergan bo'salari bor.

Endi sadoqatdan so'z ochmoq malol,
nigohimda senga bir juft xatim bor.
Chunki

ko'nglim ichra ko'ngling istagan
muhabbating kutgan muhabbatim bor.

4

Qaysidir kunlarning
qaysi onlarin,
o'tkazib yashaymiz boshqalar uchun.
Faqat sen,
faqat men,
faqat biz, angla,
faqat biznikidir – bizning kun...

IZTIROB SHIVIRI

17



SHAHARDA

Shovqin solib kezsang jimjit shaharni,
yo'lingdan chiqmasa hasrat toshlari,
O'rindiqqa cho'ksang.

Kuz.

Horg'in bog'da,
bag'ringda to'lg'onsa tunnning sochlari...

Yoningdan imillab o'tsa moshinlar,
birisi baxtiyor, birisi ingrab.
O'tirsang, xo'rsinsang, unutsang barin,
daraxtlarning ma'yus qo'shig'in tinglab.

Umid so'qmoqlari toraymasa, yo'q...
ko'zlaring misoli sabrlarni suy.

"Yana diydorgacha" desa jilmayib,
Beruniy ko'chasi,
o'n beshinchi uy!

Uyingga yo'l olsang,
ruhi ruhingda,
yuragingda yurak, ko'zingda ko'zi.
Tongga yaqin uxlab qolsang so'ng, yana
qaytadan uyg'otsa tongning kulgusi...

Bu yil bahorimiz bedarak ketdi,
Ona,
men qaytmadim holing so'rashga.
Go'zal bir haqiqat farmoni yetdi:
osmon ham adashgan,
yer ham adashgan...

Tabiat boshiga ne ish solmadik,
muqarrar jazomiz yoqdi hushlarni.
Huvilladi ayvon,
kutib olmadik,
bizlarni sog'inib qaytgan qushlarni.

Bir darveshning o'ngga do'ndi xoblari,
ruhida Xizrdek kun kechirdi g'am.
Battar yashillandi iztiroblari,
battar yashillandi sog'inchlari ham.

Daraxtlar gulladi ko'zdan yiroqda,
g'unchalar titroqsiz ochaverdi lab.
Sensiz osmon hamda sensiz tuproqda
tolmadim bahorsiz onlarni yashab.

Ona,
diydor bir kun kelarmi g'olib,
ko'rishmoq bormi, ayt?
Ko'nglimda g'ulu.
Sensiz kunlarimning shudir ahvoli,
sensiz bahorimning taqdiridir shu...

* * *

O'ylayman, yodimda bo'lasan bunyod,
O'ylayman, hijrondan cho'kar boshim yo'q.
Senli kunlar uchun o'qiyman duo,
Sensiz kunlarga hech ehtiyojim yo'q.

Ruhimda yuksalib baxt bitayotir,
Yurakka sog'inching qulaydi tikka.
Ziyoni unutib, qaniydi oxir,
O'zimni haydasam qorong'ulikka.

Bir sitam bordirki, sendan iborat,
Bir g'ussa bordirki, yaralgan mendan.
Dardlari dardingdan oquvchi faqat
Ko'zyoshi ko'zyoshing vazniga tengman.

Ming bor yozilgan hur salovatlari,
Ming bor Xudo ismin aytguvchilarmiz.
Jimlikka aylangan halovatlari,
Ishqdan ketib ishqqa qaytguvchilarmiz.

Xulosa olmadik judolardan biz,
G'am kuyin chaldimi dutor, satolar.
Bilmam, qancha kechdik xatolardan biz,
Bilmam, qancha kechdi bizdan xatolar.

O'ylayman, yonimda g'amzada dunyo,
O'ylayman, jonimdan olar bojim yo'q.
Senli kunlar uchun o'qiyman duo,
Sensiz kunlarga hech ehtiyojim yo'q.

* * *

O'zingni o'zimdanda ko'proq asradim,
Tushim – sen,
o'ngimning sarobida sen.
Uzun tunlarimning bedil hasrati,
Obod kunlarimning xarobida sen.
Ruhim – bir seningdir, dil sening – nadim,
Jonimni joningga tortiq istadim.

Yelkamga tabarruk qo'llarin tashlab
Ishqing yor kulguyim hamda yig'imga.
O'ksiz ko'zlarimda ko'zlaring yashnab,
Qorachig'im yondi qorachig'ingda.
Ko'ksimga yarashdi kuzlik qismati,
So'zi ko'k, yuzlari sorig' istadim.

Bir bulbul bo'g'zida gurilladi dod,
Xonishi to'kildi yoshim ustina.
Bosh ustiga mehring, sevinching, hurzod,
Azob-u qahring ham boshim ustina...
“Sen” degan bahrda g'azali xatim,
Ko'nglimga ishqingdan chorig' istadim.

Bir kuysan, azonday savobi yorug',
Bir tongsan, tashrifi mohi ramazon.
Bir hayotsan, kuylar eltguvchi tamug',
Bir o'limsan, visol tutguvchi har on.
Subhdayin poksan, navoday qadim,
Seni ortig'idan ortig' istadim.

* * *

Bir dunyo yaratdim xayoli bilan,
 Bir qiz bor.
 Ko'zlari ma'suma va tim.
 Moviy sog'inchlarin sochidan silab,
 o'ksinib-o'ksinib ko'ksimga bosdim...

Oppoq hislariga sotdim o'zimni,
 diydori navro'zim, vasli chin hayit.
 Olovlarga tutdi aytar so'zimni,
 ruhimdan tangacha ayladi mayib.

Saqladim pokiza yuragini sir,
 ismini yashirdim hatto hammadan.
 Ko'nglim qo'nim topgan abadiy, axir,
 Qorachiqilar degan muqaddas vatan.

Tunlar yolg'izlikning yo'qlovi xato,
 qismat bergan har ne emas nasibam.
 Menga ishon, endi xohlasa xudo,
 xiyonat qilmayman tushlarimda ham...

* * *

G'amingga yuz bosib, dedim, men sening,
kamingga yuz bosib, dedim, men sening,
ko'zlaringga boqdim
va jim undagi
namingga yuz bosib, dedim, men sening!

"Bir seni sevaman..."
yuz bora aytdim,
ko'zim yosh,
yuragim yuz pora aytdim,
qismatni o'zgartmoq istab bu kecha
yuz ming imkon topdim, yuz chora aytdim...

Yodimga xatlari kechikkan, ey qiz,
bu jonda ne qolgan, ne chiqqan, ey qiz,
kim meni senchalik solgan azobga,
kim sen deya mendek ichikkan, ey qiz?

Tashqari yomg'irmi, jalami, qormi,
nafasin unutgan mulzam bahormi,
ruhimga buyurgan taronalaring
tinglarim bormi, ayt,
anglarim bormi?

Dilimni o'rasa sen bergan hislar,
gullasa sen uchun cho'kilgan tizlar,
qolsak ham, ketsak ham,

Ishq bo'lsa bizning,
har kim izimizdan o'zini izlar...
G'amingga yuz bosib, dedim, men sening...

OQSHOMNING IKKI TASVIRI

1

O'tkir qilich kabi yaraqladi oy,
osmon tayyor tunni bosib olishga.
Haqqini yo'qotgan daraxtlar – gadoy,
bir-biriga boqib o'yga tolishgan...
Tongning alam yutgan qichqirig'idan
quyosh kulgusini kunga ko'rmas ep.
Bir bahor yig'ladim, ming yil qayg'uda,
daraxtdan to'kilmay o'lgan yaproq deb...

2

Sarxush oy yuzida qizillik o'ynar,
u balki ayni shom bo'kkuncha ichgan.
Yaproqlar izillar egasin o'ylab,
bog' esa daraxtdan batamom kechgan.
Judolik bo'g'zini yirtib baqirar,
egasiz xazonlar dunga yarashgan.
Yolg'iz bog' daraxtni yig'lab chaqirar,
balki, daraxt bunda mangu adashgan...

1

Xursand bo'l,
sevingin, yashnagin, shodlan,
Yuzingda bitmasin tabassum umri.

Qara,
biz tarafda to'kilmoqqa gul,
qanotin kesmoqqa oshiqar qumri...

Kimning kimga tushar ekan og'iri,
kim kimning yoshiga abadiy sherik.

Qara,
biz tarafda ketar mavsumlar,
biror jon istamas yashashni tirik...

Va'dalarning munglig' iztirobida
kim vijdondan kechib angladi buni.

Qara,
biz tarafda afsus ulg'ayar,
yolg'izlikning esa tavallud kuni...

Xursand bo'l,
xirom qil ruh qabri uzra,
Hech qachon bermagin ko'zlaring yoshga.
Endi
sen tarafda, unutma, biroq,
hamma kiming bordir,
bir mendan

boshqa...
Xursand bo'l...

2

Men esa unutdim,
unutishimda
(biror yo'l ko'rmadim qaytsam qaytadan.)
Sen endi tushlarda boshing egilib,
xayolda yonimga ming bor qaytasan...

Men esa unutdim,
unutishimga
hatto yolg'izlikning ismi yarashgan.
Sen endi qo'rqasan yurakka kirib,
g'amzada ko'zlarga kulib qarashga...

Men esa unutdim,
unutishimdan
ruhimga keltirdim ko'nikmoq yo'lin.
Sen endi hayotdan yiroqlashding va
umringga tilading go'zal bir o'lim...

Men esa unutdim,
unutishimning
sabrda tishini qo'yib tishiga.
Men seni unutdim, yo'l qo'ymadim lek,
meni bir lahza ham unutishingga...
Men esa unutdim...

Bir tunda angladi g'amlar taqdirin,
Shu damda manglayin chizdi oh-u dod.
Unsiz yo'l ko'zladi qaysidir Shirin,
O'ksib may sipqordi qaysidir Farhod.

Bir tunda almashdi xayollar zayli,
Shu damda bo'ldi-yu baxt kunpayakun,
O'zini topmadi qaysidir Layli,
O'zini yo'qotdi qaysidir Majnun.

Bir tunda o't oldi kul osti alam,
Shu damda yo'qliktan umid axtarib,
Jimgina ichikdi qaysi Shohsanam,
Yig'ladi qaysidir Oshig'i G'arib.

Bir tunda sog'inchi cho'kar ekan tiz,
Shu damda uyini yo'qladi armon.
Qaydadir, jimgina uxladi bir qiz,
Biron she'r yozmadi Rahmat Bobojon...

P. ga

Moychechaklar so'lmasin, deding,
Barglariga sekin bosib lab,
To'kilganin sezmadning ammo,
Yuragingga yuragim titrab...

Nigohingda uyg'ongim keldi,
Kiprigingga qo'nmasidan g'am.
Hatto
tushimda ham shu gulni
Senga keltirganim-keltirgan...

Xayolimda jonlanar ma'sum,
Hech unutib bo'larmi uni?
U Xudoning sevgi gulidir,
U Xudoning xotira guli.

Moychechaklar – tilagi dilning,
Moychechaklar – ko'ngil niyati.
Endi menga yo'qdir shu guldin
Boshqa gulning ahamiyati..

Qadamlaring izi ham aziz,
Aziz, ne bor kaftlaring tekkan.
Azizim,
Bir sen uchun Xudo
Ko'nglimga ming moychechak ekan.

Kelgin endi,
 Yomg'irlar sog'inch,
 Bandin ezar iztirob yeldir.
 Yuragimda ungan gulingga
 Yuragingdan muhabbat keltir...

Balki, unutgansan
 tonglarda meni,
 oppoq sog'inchlarga qo'ygansan ta'qiq.
 Nurab borayotgan kulbamga bugun
 Xatolar qismatim keltirgan aqiq...

Balki, unutgansan
 shomlarda meni,
 qirmizi hasratga bo'yab ruh xatim.
 Seni o'ylayman-u, ko'ksim zirillar,
 jilmayib biron-bir she'r yozolmadim...

Balki, unutgansan
 tunlarda meni,
 eng qora shubhalar ichikkan fursat.
 Endi na hayot, na ko'nglingda borman,
 unut onlaringda bordirman faqat...

Ming osmon jonimga so'zini aytar,
tutganing qay hisdir,
baxtmi, hajrmi?
Malaklar kiftida avaylab qaytar
ko'zlaring keltirgan oliy ajrni...

Bir osmon saodat, bir osmon sitam,
biri kulgu, biri ismsiz ohlar.
Bizni birlashtirgan falak ostida
muhabbat tug'gandi nigohlar...

Sog'inching bo'lmasa jonimda unut,
ishqim yuragingga qo'ymasa ta'qiq,
Osmondan yergacha qilko'prik – subut,
borar yo'l ulkandir,
qaytar yo'l daqiq?

Xotirda xayoling bitdim baytma-bayt,
ruhimga ruhi ham to'qilib betin.
Sen qaysi tuproqni ko'zlaganding, ayt,
sen qaysi osmonning yomg'iri eding?

Azizim,

Bir sen uchun Xudo

Ko'nglinga ming moychechak ekan.


* * *

1

Bir qadam azobdir,
bir qadam hajr,
bir qadam iqrordir,
bir qadam tonish.
Bezabon dunyoda
dilimni g'ajir
senga yetmaslikka
butkul ishonish...
Chirsillar sukunat
ibtidolari,
jimliklar so'ngida
faromush malak.
Axir, Ishqi yo'qning
yo'qdir Xudosi,
axir, Dardi borning
ishongani Haq!
Haqman, bir qadamlik
yo'lda bedavo,
ruh istab, istab dil
topingani g'am.
Mohim, menmasmidim
o'zidan ayro,
bir qadamlik yo'lda
ming azob ko'rgan...

2

Boshingda g'uvlamish ketayotgan Tun,
 kelayotgan tongga yolvorish bekor.
 Unutib olovga sodiqlik haqin,
 tutaydi sigor...
 Hasratim qoshiga tilanib najot
 bir qush kelib qo'nar, ko'zlari – basir.
 Va ko'nglim ko'nglingga sig'magan bir doc
 ruhim yo'llaringda jon bergan asir.
 Kel, sohil yodiga o'rnashgan kema,
 kel, dolg'alar ichra yirtilgan yelkan.
 Agar eplolmasang, Oshiqman, dema,
 qayg'urma, o'ksinma, tutmagin yelkang.
 Sharobday tomchilab xayolingda vaqt,
 qismatga yuz burib, bug'lanar achchiq.
 Vahki, Robbim bergan har qandayin baxt
 va sensiz g'amlarga yuragim ochiq...



* * *


1

Sensiz men qanchalar yo'l ko'rdim, axir,
ayriliq – tushlarga berkingan sitam.
Ismimni baxtlarga o'ra
va chaqir,
ajratib ol meni qayg'udan...
Meni sevilmaslik haqqidan ayro,
tuyg'usiz yo'llarga sochmagin, dil g'ash.
Shundog'am yo'qlikdan iborat dunyo,
shundog'am hayotim bir alahsirash.
Ranglanar ko'zguning qaysi ohlari,
raqs etar aksiga qaragan mohlar?
Uzlatda uzala yotgan bog'larni
tashlab ketarmidi baxtsiz daraxtlar?!
Tonglarni ohorsiz tushlar boshlaydi,
o'ngimga quyilar qaro nur qatim.
Men sensiz, men baxtsiz emas, yo'q, Laylim,
tushlarsiz yashashni istadim...

2

Uyg'otib yuborma tushlarni, ey moh,
zulmatni parchalab kirguvchi tilga.
Ayt, qaysi baxtingga doyadir uchmox,
ayt, qaysi azoblar do'zaxdan engan?!
Nega qanotidan tonadi bu qush,
nega kuz oralab bu bog' toladi,
nega ko'zlaringda yonar entikish,

nega arosatlar mangu qoladi?
 Nega, nima uchun, kim sabab shunday,
 safi buzilmagan savollar turg'un.
 Biz eltib beramiz tunlarni tunday,
 tushlarni tushlarday eltamiz,
 yurgin!
 Faqat yashamaslik azoblari cho'ng,
 bir g'ussa umidvor ko'zing yoshidan.
 Yur, hamma uyg'onib bo'lganidan so'ng
 ruhimiz tiklaymiz Tangri qoshida...



YANA KO'ZLARING HAQIDA

1

Ko'ksimga zulmatlar shamini yoqib,
qarolik sachratib diydamga nadim,
Nigohing jonimni qilsa-da ta'qib,
ishqingga sodiqman,
oxir to qadam...

Kel, suluv, g'am chekmoq istadim...

Kipriklar qanotsiz qushdek pitirlar,
to'kilmoq umidi yangi bir firoq.
Ruhimda uyg'ongan "guldur-guldur"lar,
istagim samodir, momaqaldiroq!

Kel, mohim, bir chaqmoq istadim...

Naylar sinib ketgay chalsa zorimni,
torlar uzilgaydir kuylab bu g'amni.

Men senga keltirdim

umrim,

borimni,

hayotim,

ko'nglimni,

ishqim,

yelkamni...

Kel, malak, bosh egmoq istadim!...

2

Bir qadim xatoni keltirding menga,
Bir o'lim farmonin, muhring bosilgan.
Bir oliy jazoni keltirding menga,
Bir dorning sarasin, ko'plar osilgan...
Endi yashayapman oxirim bilan,
Baxtim o'zimdandir, dardim Atodan.
Qocholmay, o'zimga omonlik tilab:
O'limdan, jazodan, dordan, xatodan...
Uzoq umr ko'rmas chin baxti borlar
Va yashay olishmas g'amdan tashqari.
Xatolar, jazolar, o'limlar, dorlar –
Ko'zlaring, deb atalar bari...
Izma-iz kelishar, ketmoqdaman men,
Ismingni takrorlab har bir odimda.
Bir kuni esimdan chiqadirsan sen,
Ko'zlaring qolgaydir faqat yodimda...

3

Ko'zlaringni she'r qilmoq lozim
va poyiga yiqilmoq lozim,
so'ng ularni bir dali misol
misrama-misralab,
satрма-satrlab,
va so'zma-so'z
o'qimoq lozim...
Ey, dardlari dardim-la birim,
avvalim, hozirim, oxirim,

azobim, sog'inchim, armonim,
hayotim, borlig'im, taqdirim...

Men sening qoshingda gullayman,
har tomchi yoshingdan gullayman,
yashayman, yashayman, yashayman,
o'lmayman, o'lmayman, o'lmayman...

G'am yo'li bir mening yo'limdir,
hech senga yetmagan ko'limdir,
men-la qol, ey hazin ko'zligim,
she'rlarsiz yashamoq o'limdir...
SHE'Rlarsiz yashamoq o'limdir!

4

Joni uzilay deb turgan istar: "Sen!"
Kaftlaring labimga tutadi-da suv,
Nigohing zanjirlar ruhimni ammo,
Jismimni bosadi titroq va qo'rquv...
Axir, har azobning oxiri bor-ku,
Ayni qatl onlar boshlangan bir payt
Nega qaytarmayin jonni, na olmay,
Ko'zlaringsiz tashlab ketmoqdasan, ayt?!

Taslim bo'lganim yo'q, egilganim yo'q,
Ruhim oq bayroqni olmagaydir tan.
Men sendan roziman, suyakligim - o,
Rozi emasdirman hammadan!
Ular Ishqni bilmas, jazoyimdir - Ishq...
Qo'l-oyog'im bog'li, azobda, yo Rab.
Sokin ko'zlariningni o'ylab baribir,
Ketmoqdaman Mahsharga qarab...

5

Eshigini ochgay Jannat,
 Do'zax mendan butkul tongay.
 Ko'zlaringga boqsam, faqat
 jonim yongay,
 jonim yongay...
 Yerdan to osmonim yongay,
 to'rttala tomonim yongay,
 davrim-u davronim yongay,
 E voh, xonumonim yongay...
 Yongaydir kul bo'lmaguncha,
 azobga qul bo'lmaguncha,
 qalbingga yo'l bo'lmaguncha,
 yongay, o'lmaguncha yongay...
 Yonmoq go'zal, yonmoq sozdir,
 yana yondir, yana ozdir,
 Do'zax Jannatdek tuyulsin,
 tamom bo'lmaguncha yondir...

Jannat eshik ochgaydir lang...
 otashlarda yonmoq kordir.
 Ko'zlaring deb atalguvchi
 bu dunyoda do'zax bordir...

Bu dunyoda do'zax bordir!

BIZNING SEVGI HAQIDA UCH SHE'R

1

O'lmas sevging bilan ruhimni chayib,
ko'zlaringga bo'ldim har lahzada g'arq.
Kelding,
tubsiz hisga bo'lgancha g'oyib,
qilolmadim hayotingni tark...
Faqat o'ylaringda rangin dunyoni
yaratding, yashnatding, quvnading, yelding.
Quvding yuragimdan zulmat riyoni,
kelding, hayotimga nur olib kelding!
Tozarib boradir ruhim sevgidan,
ammo sen mehrimdan tongancha bir kun
ketsang,
yashab bo'lmas bu hayot bilan,
ketsang,
o'lim bilan yashamoq mumkin...

2

Ketding,
qadamlarni yondirib bir-bir,
olovlar ichinda adashdi yo'lim.
Kela qol,
kela qol,
kela qol, axir,
meni ta'qib etar uch kunlik o'lim...
Bu darddan qirsillab ketdi qovurg'am,
qon oqar, qara-chi, yurak butunmi?!

Qarovsiz, sog'inchli, tanho va purg'am,
sen menga qoldirib ketding uch kunni...
Qolgan umrimdan hech yo'qdir xavotir,
shundan omon o'tsam, o'tsam bas butun.
Bu uch kun ko'zlaring kabi qarodir,
bu uch kun sochlaring misoli uzun...

3

Kelsang,
ketaman, deb meni qo'rqitma,
ketsang,
kelaman, deb aslo urma do'q.
Dunyoda bir Sevgim,
bir Xudo bordir,
boshqa Sevgi bilan boshqa Xudo yo'q!



Qay mahal almashdi bori osmonlar,
qush edik, o'lardik
uchmasak agar.

Ishqning falagini istagan jonlar,
qulab boraverdik tubsiz dard qadar.

Yurakning qatiga berkindi g'amim,
hijron yutib ketdi voh-dodimizni,
do'nglikka almashdik hayotimizni,
suyganim, azizim, borlig'im manim,
armonlar qayirdi qanotimizni...

Faqat, boshim uzra yulduzlar uchdi,
Oy uchdi...

yolg'izlik bizni tanladi.

Birday yuragimni dard qildi talqin,
g'ussa-yu azobni birday angladim.

Osmon sog'ingaymi bizni bir zamon,
Bizdek do'stlariga tashnami, zormi,
Minglab osmon aro uchishga arzir –
Jonim, baxtlarning ham osmoni bormi?!

* * *


I

Ko'zlarni to'ldirar osmon juda keng,
sen bir qushcha eding
ruhimday erka.
O'ylarding: "Eng sokin, eng go'zal, ...eng ...eng"
qo'nib ko'rmaganding hech zamon yerga.
Cho'qqilar misoli sog'inching uzun,
axir, tog'lar kabi dardlaring ulkan.
Xudoyim qanotlar bergani uchun
omading kulgan...
Men esa azoblar iskanjasida
o'z ko'ksimga o'zim uraman xanjar.
Kuzni sevganimga emas, azizim,
shunchaki yashashdan yuragim sanchar.
Shoxlarim qaqshaydi, titraydi tanam,
kuylarim, o, mening buncha oliydir.
Azal shu: qushchalar qushlikdan har dam,
daraxt daraxtlikdan noliydi.
O'z g'amim o'zimdan to'kilar xazon,
yo'qotib qo'yadi yurar yo'limni.
Balki, shunga ayanch tuyilmas hech on -
qushlarning bir go'zal o'limi...

II

Ko'zlarday bir sokin edi subhlar,
nigohlar emasdi bunchalar zolim.
Na bir qushcha yo'qlar, na bir Kuz yo'qlar,
yashashni istagan daraxtning holin.

Yolg'izlik betinim soladi raxna,
zamin-u samoda alamli bir sas.
Tik turib yashashdan tolgan daraxtman,
barini topganman, faqat baxt emas...
Xazonga aylandi yashil kuylarim,
men o'zimcha, hayot o'zicha haqdir.
Bir kun kelasan, deb tinmay o'yladim,
Tangrim, kelmas qilib yaratgan taqdir...
Mendan olma aslo xavotir, bilsang,
uchaver, mensiz ham baxting kulgandir.
Bariga tayyor kel, bir kuni kelsang,
tanam olov mening, qabrim gulxandir...



* * *

Bahorni eslatma ko'ksimga qayta,
 Hazin xayollardan ko'ksim zil bo'ldi.
 Axir, yashillikka "xayr-xo'sh" ayta,
 Kuzga ketganimga necha yil bo'ldi...
 Daraxtlar shovullab hasratin to'kdi,
 O'ynablar shamollar aytgan o'yinga.
 Shovqinli shaharda yana tun cho'kdi,
 Faqat bir fonusning ko'zi o'yilgan.
 Bekatlar, kafelar manglayi oydin,
 Nur to'la qismatdan beradi darak.
 Men o'sha qushchani unutib qo'ydim,
 Sen meni kechirgin, kechirgin yurak!
 Qaytgancha qarorlar qilgan bir so'zdan,
 Yonimda aylanib, uchib tolmaydi.
 Bir seni bahordan,
 Bir meni kuzdan,
 Tushungin, hech kimsa qutqarolmaydi.
 Ayriliqda ko'rib har xil yomon tush,
 Bahorlari bilan mendan ko'ngli to'q.
 Men o'sha fonusman...
 Endi o'sha qush
 Kelarmi, ketarmi farqi yo'q...

Ko'zlarday bir sokin edi subhlar,
 nigohlar emasdi bunchalar zolim.
 Na bir qushcha yo'qlar, na bir Kuz yo'qlar,
 yashashni istagan daraxtning holin.

IKKI DARAXT QISMATI HAQIDA UCH SHE'R

I

Yolg'iz daraxt haqida ilk she'r

Bostirib keladi bu bog'ga xazon,
Kuzni tanimaydi, bu bog' hali yosh.
Daraxt tonglar bilan yuzlashgan bu on,
Barglariga tomar bir tomchi quyosh.
Yo'qlig-u borliqning qoshida karaxt,
Fasllar birma-bir yig'lab o'tardi.
Bu bog' o'rtasida yolg'iz bir daraxt
O'zga bir daraxtni kutardi...
Intiqib kutardi, kutardi yonib,
Yo'qdir kutmoqlikdan chorasi o'zga.
O'zda yo'q sevinib, kulib, quvonib,
Hatto ishongandir bir kunlik kuzga.
Umid-u bardoshi sarg'aymay takror,
Gulgun chog'larini eslar u bot-bot.
Qaydadir adashib yuribdi bahor...
Daraxt gullamoqni unutgan nahot?!

II

Arosatda yozilgan she'r

Baxtimiz sochilgan, dardimiz butun,
Kuzagimiz mangu, bahorimiz yo'q.
Tinmay aylanadi beparvo tun-kun,
Poyimizda zamin, boshimizda ko'k.
O'zicha yashaydi boshqa-boshqalar:
Shodliklar, quvonchlar, kulishlar...
Bizning ko'nglimizni so'lishlar talar,
Umrimizni talar so'lishlar.
Yelkamizni ezgan, yo'q, qushlar emas,
Gunohlar olajak jonni sug'urib,
Na bir egnimiz bor qilgulik havas,
Ildizimiz borar kun-kundan chirib.
Yashaymiz beko'z-u, yashaymiz bedil,
Ko'niktirmoq istab aylanar dunyo.
Endi o'lgungacha kuylaymiz betin:
"Arosatda qoldikmikan yo?
Arosatda qoldikmikan yo?
Arosatda qoldikmikan yo?!"

Endi o'sha qush
Kelarmi, ketarmi farqi yo'q...


III

Yolg'iz daraxt haqida so'nggi she'r

Tashqari ezildi,
Qismati qaro,
Juda yupun edi bog'larning egni.
Minglab o'simlig-u minglab his aro,
Faqat shu daraxtga yolg'izlik egdi.
Shamollar kuylatdi alamli vido,
Mag'rur turdi: "Barcha o'tingda yondir!"
Uning jimligi bir haqorat go'yo,
Uning jimligi bir isyondir..
Azoblari sariq,
Dardi beyashil,
Olamga bor-budi nafratin to'kdi.
Endi bahorlarning kelmog'i hazil,
Endi bu dunyoda yashnamoq yo'qdir.
Kuz...
Yurak oldida tiz cho'kmay yashay,
Tunlarga singadi majruh bir farah.
Bahorda tushimga kiradi tinmay
Yonib, yig'layotgan bechora daraxt...

* * *

Bahorlarning elchisi shamol
uzoqlardan eltgan xabar,
Yuzlarimga urilar-u so'ng
yuragimni qidirib topar.
Ko'zlarimga qaytadi shodlik,
so'zlarimga qaytadi ma'ni.
Borlig'imga qaytar endi baxt
quchog'imda yayrab kulgani.
Shahar uzoq o'yga cho'madi,
to tonggacha unsiz sir saqlab.
Daraxtlar hasaddan horg'in
bir aybini qo'yolmas oqlab.
Men yashaymi axir indamay,
men yig'laymi indamay bugun,
Yolg'iz qolgan zamin-u samo,
gullolmagan daraxtlar uchun?



KECHIKKAN SHE'R

Unutma.

Bir qaro qismatdir – nadim,

Uning Ishq atalgan “oq”larida sen.

O'zdan tonsam tondim, sendan kechmadim,

Dilning baxtli-baxtsiz chog'larida sen...

Gohi gumonlandim, goh bo'ldim amin,

Goh zor ta'min totdim, goho g'am ta'min,

Gohida ko'k bo'ldim, gohida zamin,

Umrning pand yegan gohlarida sen...

Visoling istadim alamli she'rdan,

Ko'zingni izladim majruh taqdirdan,

Isming chiqib keldi sitilgan yerdan,

Ruhning unutilgan choklarida sen...

Qolsa, hasrat qoldi so'zimga kirib,

Ketsa, orom ketdi yuzini burib,

Hech qachon Xudoga bermadim firib,

Hazrat tunlarimning ohlarida sen...

O'zdan tonsam tondim, sendan kechmadim...

P. ga

1

Tongim nigohingga quyding eritib,
kipriklaring yozdi
tunlarimga xat.

Bir azobning qushi bo'g'zini yirtib,
ruhim darchasidan qilmadi rixlat -

Kechir, bu dard borasinda adashdim...


Kelarsan,
qatlidir ikki yonimning
g'am qini bir taraf, tig'i bir taraf.
Egasi o'zingsan to'rt tomonimning,
kulgu bir tarafdin, yig'i bir taraf -

Men-chi, tanlov chorasinda adashdim...

Borliging she'r edi, so'z edi abas,
yo'l bo'yi bir she'rni o'qib ketdim-u,
Buyon qarashlarga yetmayin nafas,
esimda,
bir paytlar cho'kib ketdim-u -

Ko'zing oq-u qorasinda adashdim...

Yo Rabki,
 tushingda yodim bor subut,
 sog'inching ruhimga bosilgan tavr.
 Muhtasham sevinching saqlaydi sukut,
 oliy farmonini keltirar jabr.
 Seni baxtli qilgan baxtlarimdir yo,
 yo'q, u g'amlarimdir, yo'q, azoblarim.
 Xaroblarim bo'lar tun-u tong aro,
 ikki dunyong ichra yongan xoblarim.
 "Unutma, unutma, unutma!" tamom,
 bor-yo'g'i so'zim bor eng oddiy uchta.
 Yo Rabki,
 so'rayman meni hech qachon
 unutib qoldirma
 qaysidir
 tushda...



* * *

Ismingni bergandim qaysi Kuzimga,
men uchun bahorga do'nganim pari.
Tupurib dunyoning yolg'izligiga,
dard-u azobiga ko'nganim pari...

Men deb xarob qilgan obodlarini,
men deb ingraguvchi yurakmasmiding?
Sog'inchim qayirgan qanotlarini,
parvozlari oliy malakmasmiding?

Ruhim daraxtlari yig'laydi giryon,
o'zgalar qalbidan kimni izlading?
O'zing osmonmiding, dardingmi osmon,
yoxud osmonmidi axir hislaring?

Xudo, dedim, biroq yoshlanmadi ko'z,
haq yo'lni jim chetlab o'tdimmi doim?
Gunohim ko'p edi, sevgisi yovuz,
ichimda yashardi ko'pdan azroyil...

Jonimni unutding g'amda atayin,
og'riqlar ruhimga yo'llar inja xat.
Bir bo'lsa malag-u shaytoni lain,
qiyomat kelarmi, qiyomat?..

Ko'zing oq-u qorasinda adashdim...

Ko'zga sizib kirar vahimali tun,
Dilning darchalari ochiladi lang.
Qolajaksan mangu xotirotn uchun,
Daraxt, agar hozir gullasang...

Gullayver, osmonlar senga boshpana,
Zaminni sen uchun yaratgan Qodir.
Fursat bo'larmikan bundan so'ng yana,
Gullamoqdan olsang xavotir?!

Ba'zan sevintirib, azoblab ba'zan,
Shamollar ko'rsatar eng oliy karam.
Gullasang, o'ylaring chin bayt-ul hazan,
Gullasang, hislaring lojaram...

Uyg'onish azobi eng yuksak bir baxt,
Hijroni kuzakdir,
dardi qoradir.
Qara, gullolmagan necha ming daraxt
Dunyodan bir izziz o'tib boradir...

* * *

Azobli xotima
so'nggi sariq barg,
Bog'larda azadan qolgan oh-fig'on.
Aylab manzilsiz u dunyosini tark,
Kuz,
asta indamay berayotir jon...
Dalda bo'lmoq istab urindim qancha,
Bo'zladim:
"Sen ketsang, dil qolar yetim!"
Kuzak ketib qoldi asta kulgancha,
Men uning qotilin tanimas edim.
So'ng u yo'qlab keldi,
barisi oshkor,
Hattoki bilaman nomi, otini.
Endi bu uch oyda,
kelguncha bahor,
Yonimda yashaydi kuzning qotili...
...
Jonimni unutding g'amda atayin,
og'riqlar ruhingga yo'llar inja xat.
Bir bo'lsa malag-u shaytoni lain,
qiyomat kelarmi, qiyomat?..

Sukunatni ichgan daraxtlar
o'y surishar bog'da ji-im turib.
Yolg'izlikdan to'ygan shaharga
erinchoq qish kirar yugurib.
Jimliklarga to'ladi bekat,
"Ketayapman, qaytaman bir kun..."
Ji-i-im ketaman oltin barglardan,
kuzak tugib beradi tugun.
Tarang tortar majnuniy urak,
jaranglaydi bo'g'zimdagi ishq.
Har qadamda yo'limni to'sar
men izlagan ilohiy qo'shiq.
Suzib borar ko'zlarim kema,
dilga tashlar sog'inch langarin.
Men "oh" bilan kelisholmayman,
yasholmayman baxtdan tashqari.
Noyabrda ezilgan ruhim
yomg'irlari botgan yelkamga.
Tangrim, borar manzilim ayon,
Tangrim, o'zing yo'l ko'rsat g'amga!
"Ketayapman, qaytaman bir kun..."

2

Kuzini unutgan bahorman,
Baxtini ko'p kutgan ozorman,
Yo'lingga to'kildim g'am bo'lib –

Tushingda bir faqat men borman,
Hushingda bir faqat men borman...

Izingga boylandim nolaruh,
So'zingga aylandim, lolaruh,
Ko'zingni ranjitgan nam bo'lib –

Tushingda bir faqat men borman,
Hushingda bir faqat men borman...

Yo'l ko'rsat, yo'llarda daydidim,
Baxt nedir? Azobning qaytimi,
Ko'pini qidirgan kam bo'lib –

Tushingda bir faqat men borman,
Hushingda bir faqat men borman...

Ko'ngilga sig'magan ishq edim,
Endi-chi, dil yetim, til yetim,
Boshlari egilgan xam bo'lib –

Tushingda bir faqat men borman,
Hushingda bir faqat men borman!..
Tushingda bir faqat men borman...

UNUTISH

1

Tuman.
Qorli kecha.
Yolg'izlik...
taralgancha bir mungli kuylar,
tuni bilan tutunga to'lib,
uzun-uzun "oh" chekdi uylar.
Sovuq havo yutavergandan
derazalar qoldilar yaxlab.
Shoxlarini silkitib mahzun
Dalda berdi holsiz daraxtlar.
Tor yo'llarda avtolar yeldi,
Nursiz manzillarga tentirab.
Sen olamga qarading shunda:

Yo'lsizlarga yana yo'l so'rab,
Qo'lsizlarga yana qo'l so'rab,
Dilsizlarga yana dil so'rab...

So'ramading o'zingga hech vaj,
jim gullading gulbahor yanglig'.
Ko'zyoshingni artdi-da asta,
seni qo'llab yubordi Tangri...

2

Qog'ozgacha boshi egildi,
to yergacha egildi qaddi.
"Kutmayman" deb yig'ladi pinhon,
"sevmayman" deb sani aldadi.
Ketaverdi, ketaverdi jim,
har qadamda ortiga boqdi.
Yuragida yaralib, yonib,
ishqsizligi ko'zidan oqdi.
Dardlariga quloqni tutsam,
ohlariga tordir samo, yer.
"Baxtli bo'l" deb yig'lab, o'ksinib,
men ham so'ngra yozib berdim she'r...

3


Ko'zingni unutib bormisham,
so'zingni unutib bormisham,
oldimda g'amim mo'l, baxtim bor,
izingni unutib bormisham.

Bag'rimga botajak yo'qliging,
sensizlik botajak yelkamga.
Qandayin yordamlar berasan
abadiy yolg'iz bir odamga?

Yuzingni unutib bormisham,
bo'zingni unutib bormisham,
qolmisham sensiz bu dunyoda,

tolmisham sensiz bu dunyoda,
o'lmisham sensiz bu dunyoda...

O'zim sanda edim, san manda,
o'zimni unutib bormisham,
o'zingni unutib bormisham...



Qayerga yashirding mensiz bahorni?
Asta yo'l olaman sensiz kuz tomon.
Qo'llarim horigan, dillarim toldi,
Yo'llarim xazondir,
Yo'llarim xazon...

Qayerga shoshadi mensiz tuyg'ular,
Alam va hasratdan doimo o'zib.
Yuzimda sarg'ayar sensiz kulgular,
Labimda qovjirar "sevaman" so'zi.

Umrimga taftini keltiradi kuz,
Izg'iyman armonning izlari ora.
O'ng-u tushlarimda, hanuz, o, hanuz
Sen borsan,
Sen borsan,
Sen borsan,
qara...

O'zidan o'zini topmaydi dunyo,
Manzilsiz yo'llarda hayron-u sarson.
Bahorga tutashmas umrlar ro'yo,
Toshni yorolmagan g'unchalar yolg'on...

Yuzingni unutib bormisham,
bo'zingni unutib bormisham,
qolmisham sensiz bu dunyoda,

SEN VA U HAQIDA MEN YOZGAN SHE'R

Fasllar oralab boraman,
ko'klarga intilib dil toldi.

Nadomat yashildir jonimda,
U ketdi.

Sen ketding.

Men qoldim...

Qanday yashay olayapsan jim,
ko'ksingda g'am tursa benajot?

Umidlar sarg'aydi, qaragin,
U tamom.

Sen tamom.

Men hayot...

Daydiydi egasiz xazonlar,
gul bog'lar yig'laydi daraxtsiz.

Kuzakning izlari izimda,
U baxtli.

Sen baxtli.

Men baxtsiz...

BAHORNING TANISHLARI

(Turkum she'rlar)

1


Bog'lar.

Jim xo'rsinib, og'ir tin olar,
o'sha yer-u osmon, oltita yoq bor.
Hamon xayolimda yashil nolalar,
hanuz o'ylarimda zangori oh bor.
Sassiz og'riqlarga davo bo'lmas may,
xotira eng eski unutilgan jom.
Bahorda maktublar bitasan tinmay,
"Bizni tashlab ketgan kuzlarga salom..."
Qishlardan qochasan:
"Yurakni berkit,
ko'zlaringni yumgin, qo'llaring yashir".
Hanz fikrlaring zangori erkin,
hamon xayollaring yashildir, yashil.
Endi dardni qo'ygin,
umidlar axtar,
ozg'in vujudingni sog'inch yoqarkan.
Bog'larga gapirib faqat baxt haqda,
ana, o'riklarning sochi oqargan...

Sog'inchli qanotin bazo'r ko'tarib,
uchib borar yengil, uchib borar sha'n.
Qushlar qaytayotir uyiga g'arib,
men esa kuchsizman,
men yengilaman...
Dalalar ma'yuslik libosin kiygan
xayr-xo'sh yog'dirar kuzgi daraxtlar,
Ko'zlarim yosh to'kmas, ko'zlarim kuygan,
sog'inchga aylangan bizlarning baxtlar.
Mening xayollarim, mening o'ylarim
qishki xurujlarga bo'layotir g'arq.
Faqat bitta qush bor...
Tinmay kuyladi,
meni tark etmadi, tark etmadi, tark...
Voh, qushim, qovurg'am qafasin sindir,
kuyla, kuylayvergin, to'xtama tun-kun.
Dunyoda o'lib ham yashash mumkindir,
dunyoda yashamay o'lmoq ham mumkin...

3

Sening kuzing,
mening yozlarim
va ularning qishlari ko'pdir.
Fasllarga aylangan sog'inch,
dard yemoqqa baxtimiz yo'qdir.
Sening xazon,
mening soylarim
va ularning ayozlari mo'l.
Fasllarga aylangan g'ussa,
yuragimga topilmagan yo'l.
Fasllarga aylangan hayot
xayolimda jonlanar ming-ming.
Qara, qara, yaxshilab qara,
bahorimiz yo'qdir
hech
birimizning...



Ana kuz,
mana kuz
hamda
yana kuz,
g'amga tutilasan g'amingdan qochib.
Ingranaman
jimlik ichida beso'z,
barcha xazonlarga yuragim ochiq.
Barmoqlarim suzar mayin,
kuzakning
oltin kokillari ichra bo'lib muz.
Umidini ezar, siqar yurakni,
ana kuz, mana kuz hamda yana kuz...
Boshni olib ketsang kuzsiz tomonga,
yo'llaring yashnasa tobora yashil.
Axir, mish-mishlarga juda ishongan
bizni kutayotgan
biz bilmas
fasl...

YASHASHNING IKKI SHARTI

1

Ko'zlaring yig'lashni bilmasa, yovdir,
yuraging sukunat qo'lida talash.
Gohida yelkangdan ezishar, gohi
ko'ksingga botadi bir og'ir qarash.
Tinishni istaysan va tinolmaysan,
borasan betakror kunlardan o'zib.
Yonimga kelmaysan, sog'indim seni,
yoningga bormayman, kutmaysan o'zing.
O'zim, ha-ha, o'zim, yolg'iz bir o'zim,
kuz ichra boraman so'lib tobora.
Qahqaha otadi samo ustimdan,
bahor izlarimdan yetmay ovvora...
Meni alda, bo'ldi, alqa, loflar ayt,
gulim, azob bo'ldi umrim, netayin.
Dunyodan ketsam ham tayin hijronim,
dunyoda qolsam ham hijronim tayin...

2

Gujumlar –
shoxlari ko'nglimga tutash,*
gujumlar
kuzlarni yenggan daraxtim.
Gujumlar,
gohida qiyindir yashash,
bizning ikkimizga ayovsiz taqdir.

Dunyoga sig'maydi biz chekkan hasrat,
 to'rt fasl ko'zlarda yashar yashil oh.
 O'zimizni sira yurmaymiz asrab,
 faqat o'zgalarga bo'lamiz panoh.
 Mardona turamiz, bardam tanamiz,
 bizni yiqmoq istar shamol-u dovul.
 Biz qishloq, dalasiz yashay olamiz,
 bizziz yashay olmas na otiz, ovul...
 Oson yengilmoqni ko'rmaymiz hech ep,
 qaddimiz egik-u, mag'rur boshimiz.
 Hech kim artib qo'yimas, ko'ngil uchun deb,
 na sening, na mening ko'zda yoshimiz...



Azobdek tuyilar barisi endi,
 seni osmonlarning og'ushi tortar.
 O'z qanotin o'zi yulgan kelgindi,
 ucholmayсан, yuking zalvori ortar.

* * *

Jonim, deganlaring joningni olib,
joningga bemalol qiladilar qasd.
Men sening joningga ozorlar solib,
yashab yurolmayman,
sen "jonim" emas...
Yomg'ir kabi poksan,
kuz misol hazin,
shamsan, ming bir dardda bo'lmaysan ado.
Qay jonda bo'lsang ham, Xudo asrasin,
mening sog'inchimdan etmasin judo...
Baxt ber, hech kimda yo'q, go'zal va so'lmas,
yo'limga nigohing to'shab qo'ygin jim.
Ikki dunyoyim bo'l,
sen jonim bo'lma,
jonimni bir kuni olgaydir Tangrim...



Gujumlar -
shoxlari ko'nglimga tutash,
gujumlar
kuzlarni yenggan daraxtim.
Gujumlar,
gohida qiyindir yashash,
bizning ikkimizga ayovsiz taqdir.

UNUTISH HAQIDA UCH SHE'R

Masihullohga

1

Qayt, deyman, qayt deyman, yo'q u tarafda
eskirar hasrating, o'tinch, anduhing.

Borini unutib,
yondirib kaftda
bir so'zni changallab oladi ruhing.

Sen esa istaysan:
ko'zlaringdek pok,
ko'hna hislarimning bahridan kechib,
ko'tarasan yana boshing balandroq;
ko'ylagingning oldi tugmasin yechib
yashaysan,

xohlaysan hamma odamdek,
seni tinglaganga termulasan,
so'ng,
sendan tonar, seni kutayotgan erk,
tushlarga qochadi Erk istagan o'ng...


2

Azobdek tuyilar barisi endi,
seni osmonlarning og'ushi tortar.
O'z qanotin o'zi yulgan kelgindi,
ucholmaysan, yuking zalvori ortar.

Bu yerlar boshqadir, bu makon o'zga,
vahki, o'z yo'lida o'zi ovvora.
Garchi qanotlaring umidin uzgan,
ko'kka kirib bormoq istar tobora...
Sen tushlar ko'rasan, zaminda bu payt,
qarshingda gullashdan tolmaydi uchmox.
Axir, hech joningga tegmadimi, ayt,
tushlaringda bemalol uchmoq...

3

O'jar shoir erdim,
hurlikka tashna,
ammo xayolimda oliy bir sukut.
Bas, yetar, baxt deya yolg'on talashma,
uchish haqidagi tushlarni unut...



Men senga maktublar yozdim
 har oqshom,
 so'zlar sehlarkan har tarafingni.
 Ehtimol,
 yuzingga bosding indamay,
 ehtimol, ohista bosding labingni...
 Shu damda seskanib birlashdi ruhlar,
 hasratlar barobar ushladilar qo'l.
 Seni izlab ketdim
 dunyoma-dunyo,
 meni izlab kelding
 sen ham yo'lma-yo'l...

Qarshingda o'zini to'kayotgan kim,
 harfma-harf, so'zma-so'z, axir, xatma-xat?
 Bilmayman,
 azobmi, quvonchmi, bizga
 qaysi maktubini atar muhabbat...
 Ong-u vujudimda bir titroq yondi,
 xayolga aylandi, tasodif visol.
 Endi har nafasda chorlayman,
 jonim,
 kela qol, kela qol, kela qol...

Tor xonamga to'ldi betil qog'ozlar,
 Qo'llarim ingradi qalamdan nari.
 Derazamga o'zin urdi dunyoning

qanotli, beqanot kabutarlari...

Kechir!

Yozolmayman, tilimda so'z yo'q,
nahot, ko'rolmading dildan narini?..

Qaysi osmon, axir, qabul qilar, ayt,
sensiz ko'zlarimning mujdalarini?

Qalamni sindirdim.

Barisi tamom,

bir sirni aytaman, tinglagin, qadim:

"Nigohimdan ko'char nigohlaringga
ko'nglimda yashirin eng go'zal xatim..."

Men senga maktublar yozdim
har oqshom...



* * *

Azaldan abadga ilohiy mavji,
ko'zlaring dengizlar kabi teranlar.
Xayollaring kimni topolmay, ranjib,
gullashni unutgan Bog'i Eramlar.

Sen so'lish boshlading qaysi ma'voda,
yuzing oftoblardan o'g'irladi rang?
Chiltonlar yaratgan mahzun navoda
kaloming to'kilib borguvchi ohang.

Bahorimga endi yo'l qolmadi. Kuz.
Ruhimda chiziqsiz minglab xarita.
Bilgisiz sog'inchlilar aro qotib muz,
sen esa yashading mendan narida...

Ishqim kamtarlikka ichgancha qasam
oyog'i uzilib boradi yerdan.
Nima bo'пти, darddan pandimni yesam,
xudo xohlarsa, ko'p pushaymon yerman...

Mung to'la ko'zimda behadik nolish,
ozg'in qo'llarimni tutgan xavotir.
Lek bugun ne baxtki, jonda yaralish
qayta va qaytalab bo'lmoqda sodir.

Bu qanday tahqir-u, bu qanday shon-u,
kel, mening yonimga tabibim, xastam.
Men qanday sevishni bilgan inson-u,
men qanday yashashni bilmagan kasman...

qanotli, beqanot kabutarlari...

Kechiri

* * *

Yo Qushsan, erkinlikka yo'l boshlab
quchog'ida erkalar osmon.

Qa Rost deb, rostga o'xshamas rostlar,
se yolg'on bo'lib, yolg'onmas yolg'on.

Qa Barin bilib, ko'tarmaysan bosh,
Ba ostonada har shab-u ro'zing.

bi Sog' bo'lsa bas, to'kib tursa yosh,
" ikki qayg'u – ikkita ko'zing.

ko Qanotlaring isyonli taqdir,
Ba qanotlaring olov, so'nmagan.

Bi Qanotlaring tengi yo'q, axir,
" qanotlaring yerga qo'nmagan.

Tug'iladi dillarda havas,
ruhlar yozar moviyrang yelkan.

...Tog'dek suyanch, omon bo'lsa bas,
ikki baxting – ikkita yelkang.

Barcha suvlar menga tomon oqdi, yohu,
jon-jonimga singding
mendek devona ruh.
Men bu yo'lda topdim azob,
topdim og'u,
moviy yo'llar aro seni topganim yo'q.
Qoyatoshlar diydanga so'z aytolmaslar,
yemirilar,
o'pirilar,
o'lolmaydi.
Ketar ular, ortiga hech qaytolmaslar,
qaytmas ular, ular qaytib kelolmaydi...
Ular yuksak,
ular baland,
ular hurdir,
taqdirimga tosh ko'zidan solmish nazar.
E voh, qara, yolg'izlikda jannat qurdim.
Yo alhazar!..
Qo'llarim, o, tolmagaysan,
Xudo bor-ku, ohlarim,
O, gard tegmasdan samoga yet.
Barcha suvlar menga qarab oqdi, yohu,
bor, ketaver,
boshing oqqan
tomonga
ket...

* * *

Bog'ni o'z holiga qo'ymadi shamol,
shamolga haddini bildirdi qoya.
Qaysar tabiatning ta'limi malol,
Eng so'nggi qarorga keldim nihoyat.

"Men endi
seni o'z holingga qo'ydim..."

Quyoshni bulutlar allaladi ming,
bulutni yomg'irlar tark etdi bir-bir.
Na kutari qoldi ikki ko'zimning,
Na so'zlari bordir tilimning, axir.

76

"Men endi
seni o'z holingga qo'ydim..."

O'zi istab sira sarg'aymas yaproq,
Bargin uzmoqlikka tashnamas daraxt.
Yo'llarimni eltsin armonga ko'proq,
Baribir,
umrimga tutmasa ham baxt.

"Men endi
seni o'z holingga qo'ydim..."

Kel, endi yashaymiz har kun-u har kech
Yolg'iz va yolg'iz-u, tanho va tanho.

MUNDARIJA

Ne'mat Arslon. Iztirob daraxti.....	3
Singlimga maktub.....	6
"Xudoyim, yerlarga urmas nomini...".....	8
"Onajon...".....	10
"Men yo'qman...".....	12
So'nggi iltimos.....	13
Bizning kun.....	14
Shaharda.....	18
"Bu yil bahorimiz bedarak ketdi...".....	19
"O'ylayman, yodimda bo'lasan bunyod...".....	20
"O'zingni o'zimdanda ko'proq asradim...".....	21
"Bir dunyo yaratdim xayoli bilan...".....	22
"G'amingga yuz bosib, dedim, men sening...".....	23
Oqshomning ikki tasviri.....	24
"Xursand bo'l...".....	25
"Bir tunda angladi g'amlar taqdirin...".....	27
P. ga.....	28
"Balki, unutmagan...".....	29
"Ming osmon jonimga so'zini aytar...".....	30
"Bir qadam azobdir...".....	31
"Sensiz men qanchalar yo'l ko'rdim, axir...".....	33
Yana ko'zlaring haqida.....	35
Bizning sevgi haqida uch she'r.....	39
"Qay mahal almashdi bori osmonlar...".....	41
"Ko'zlarni to'ldirar osmon juda keng...".....	42
"Bahorni eslatma ko'ksimga qayta...".....	44
Ikki daraxt qismati haqida uch she'r.....	45

"Bahorlarning elchisi shamol..."	48
Kechikkan she'r.....	49
P.ga.....	50
"Ismingni bergandim qaysi kuzimga..."	52
"Ko'zga sizib kirar vahimali tun..."	53
"Azobli xotima..."	54
"Sukunatni ichgan daraxtlar..."	55
Unutish.....	57
"Qayerga yashirding mensiz bahorni?"	60
Sen va u haqida men yozgan she'r.....	61
Bahorning tanishlari.....	62
"Ana kuz..."	65
Yashashning Ikki sharti.....	66
"Jonim, deganlaring joningni olib..."	68
Unutish haqida uch she'r.....	69
"Men senga maktublar yozdim..."	71
"Azaldan abadga ilohiy mavji..."	73
"Qushsan, erkinlikka yo'l boshlab..."	74
"Barcha suvlar menga tomon oqdi, yohu..."	75
"Bog'ni o'z holiga qo'ymadi shamol..."	76

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.
☎ (98) 128-30-04 e-mail: mashkhar-press@mail.ru

Bosilgan 20.11.2020-yilda ruxsat etildi.
O'set dog'oz Qo'g'oz bichimi: 70x90 1/32.
O'set bosma. Hisob-nashriyot 2,2.
Ahdli: 10000 nusxa. Buyurtma №349.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasiida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

B 79

B 79 Bobojon, Rahmat.

Iztirob shiviri [matn]: *she'rlar*/ R.Bobojon.

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2020. – 80 b.

Adabiy-badiiy nashr

Rahmat BOBOJON

IZTIROB SHIVIRI

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

“ADABIYOT NASHRIYOTI” MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru


Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90^{1/32}.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,5.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №349.

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



RAHMAT BOBOJON

IZTIROB SHIVIRI



Rahmat Bobojon

(Rahmatjon Bobojonov) – 1998-yil
19-dekabrda Xorazm viloyati, Shovot
tumanida tugʻilgan. Urganch Ijtimoiy-
iqtisodiyot kollejini tamomlagan.
Hozirda “Kitob dunyosi” gazetasida
Oʻzbek adabiyoti boʻlimi muharriri.
Sheʼrlari va tarjimalari matbuotda
eʼlon qilib kelinmoqda.

“ADABIYOT”

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-6-7



9 789943 647367